

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

KOMMUNIKATIV YONDASHUV ORQALI NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Saidova Mukhayyo Umedilloevna,
Associate Professor of English Linguistics Department, PhD
Bukhara State University (Uzbekistan)
m.u.saidova@buxdu.uz

Boboeva Zarina Rajab qizi,
Master Degree Student, Bukhara State University (Uzbekistan)
z.r.boboyeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Til birinchi navbatda yozma emas, balki og'zaki nutq hisoblanadi. Nutq - muloqotda amalga oshadigan fikrni yetkazish jarayonidir. Ushbu maqolada nutq mahoratini kommunikativ yondashuv orqali o'stirishga qaratilgan bir necha usullarning tahlili keltirilgan. Bundan tashqari muloqot ko'nikmalarining qanday usullarda o'rgatilishi, muloqot qobiliyatini oshirish bilan bog'liq vazifalar bo'yicha ham alohida to'xtalib o'tilgan. O'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantiruvchi bir necha mashqa turlari ham tahlil etilgan. Maqolada keltirilgan misollar ilmiy asoslangan manbaalardan olingan.

Kalit so'zlar: kommunikativ yondashuv, nutq mahorati, talaffuz, dialog, role-play usuli, o'qitish tamoyillari.

Abstract. Language is primarily spoken rather than written. Speech is the process of conveying an idea that takes place in communication. This article presents an analysis of several methods aimed at developing speech skills through a communicative approach. In addition, the methods of teaching communication skills and the tasks related to improving communication skills are also discussed separately. Several types of exercises that develop students' speech skills are also analyzed. Examples given in the article are taken from scientific sources.

Key words: communicative approach, speech skills, pronunciation, dialogue, role-play method, teaching principles.

Аннотация. На языке в основном говорят, а не пишут. Речь – это процесс передачи идеи, происходящий в общении. В данной статье представлен анализ нескольких методик, направленных на развитие речевых навыков посредством коммуникативного подхода. Кроме того, отдельно обсуждаются методы обучения коммуникативным навыкам и задачи, связанные с совершенствованием коммуникативных навыков. Также анализируются несколько видов упражнений, развивающих речевые навыки учащихся. Примеры, приведенные в статье, взяты из научных источников.

Ключевые слова: коммуникативный подход, речевые навыки, произношение, диалог, метод ролевой игры, принципы обучения.

Kommunikativ yondashuv hozirgi vaqtida butun dunyoda keng tarqalgan yondashuvlardan biri bo'lib, chet tillarini o'qitishning asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi - tilda erkin muloqot qilishga, muloqotning turli vaziyatlarida o'zini adekvat tutishga o'rgatishdir. Ya'ni, bu yondashuvda asosiy narsa muloqot paytida o'zaro ta'sir va kommunikativ maqsadga erishishdir.

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

Bunday yondashuv ba'zan chet tillarini an'anavyi o'qitish usullaridan voz kechtirib, tilni so'zlar va grammatik hodisalar tizimi sifatida o'rgatishga e'tibor qaratilgan. Ammo bu holatda kommunikativ yondashuv lug`atni va grammatikani tilga aloqasini yo`qqa chiqarishga qaratilmagan, aksincha ularni tilda va muloqot jarayonida qo'llash uchun muhim turtki bo`ladi.

Ma'lum bo'lishicha, biz har qanday til hodisasini faqat bilish uchun emas, balki nutqda qo'llay olish uchun ham o'rganamiz. Ta'llimning asosiy maqsadi o'quvchilarga til haqida ma'lum bilimlar to'plamini berish emas, balki ularni muloqot qilish uchun tildan foydalanishga o'rgatishdir.

Tinglash va gapirish asosiy ko'nikmalar hisoblanadi. Chunki ular nutq jarayonida fikr almashishga va fikrni yetkazib berishda qo'lladiladi. Ona tilida bolalar juda tabiiy holda tinglashadi va gapirishadi. Chunki atrofdagi insonlar ular bilan o'zlarining ona tilisida muloqot qilishni ma`qul ko'rishadi. Ammo ikkinchi tilde muloqot qilishga kelganda, ular fikrlarini bayon etishga qiynalishadi. Bunday muammolar, albatta, ikkinchi tilda kam muloqot mahorati shakllanganligidan darak beradi.

Anuradhaning(2014) fikriga ko'ra, nutq ko'nikmalarini o'rgatish tamoyillari quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- o'quvchilarni birinchi kundanoq to'g'ri gapirishga undash. Agar ularning bilimi yetarli bo`lmasa, iloji boricha tezroq ularga so'zlar, iboralar yoki jumlalarni o'rgatishni boshlash;
- o'quvchilar nutq jarayonida ba`zi ibora va so`zlarni qayta-qayta takrorlasa ham ularning nutqini bo`lmaslik;
- agar o'quvchi biron bir savolga bir so'z bilan javob bersa ham ularning ichki intilishini sindirmaslik;
- o'quvchilar iloji boricha ingliz tilidagi bilimlaridan faolroq tarzda foydalanishi zarur;
- so`z birikmalar, iboralar va yangi so'zlarni o'rgatish va o'quvchilarga uni turli vaziyatlarda qo'llashlariga imkon berish;
- gap va so`zlarni qo'shish orqali uzun jumlalarni yaratish va ularni ishlatish;
- imkon qadar rolli o'yinlar va juft bo`lib ishslashni tashkil etish, ya`ni, faol va nofaol o'quvchilarni bir guruhi sifatida shakllantirish;
- darsni oldindan rejalashtirish, topshiriqlar bo'yicha oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish;
- boshlang'ich sinfdagi o'quvchilar xatolarga yo'l qo'ygan paytda ularni tuzatishga harakat qilish katta to`sinqinlik bo`lishi mumkin. Shu tufayli ham xato gapirganda ularni chalg`itmaslik kerak.

Anuradhaning ta`kidlashicha, o'qituvchilar o'zaro munosabatlarni rag'batlantirish va nutq qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi unday jarayonda quyidagicha ish ko'rishi kerak:

- o'qituvchi sinfda til elementlarini to`g'ri qo'llash orqali ularga yorqin namuna hisoblanadi;
- o'qituvchi o'quvchilarni maqsadli tilni mashq qilishga undash uchun savollar berishi va o'quvchilarni biror narsaga javob berishga majbur qilish og'zaki mashqlar turlaridan biridir. Bundan tashqari, talabalarni o'qituvchi va tengdoshlariga savol berishga undash munozarani rag'batlantirish va o'quvchilarni gapirishga jalb qilish ham yaxshi usuldir.

Nutq ko`nikmalarini rivojlantirishda role-play, ya`ni, rolli o`yinlarning o`rni juda katta. Chunki o'quvchilar o'zlarining soxta hayotlarida ko'plab ijtimoiy vaziyatlar va holatlarni namoyish etadilar. Rolli o'yin mashqlari davomida o'qituvchi o'quvchilarga o'zları va ularning fikr va his-tuyg'ulari haqida ma'lumot beradi. Masalan, dars boshlanishida o'qituvchi o'quvchilarni juftliklarga bo`lib chiqishi va ularga turli vaziyatlardagi so`zlarni taqdim etishi mumkin. O'quvchilar esa shu so`zlardan foydalanib, o'zlarining nutq qibiliyatlarini vaziyatda ishga solib sinab ko'rishadi. Bu esa tilni sinovdan o`tkazishning va nustahkamlashning oson usullaridan biridir.

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

Xulosa qilib aytganda, nutq qobiliyati yoshlikdanoq rivojlanishi kerak bo`lgan hodisadir. U nafaqat rivojlanadi, balki rivojlaniriladi ham. Uy sharoitida ota-onalar, maktab sharoitida esa o`qituvchilar bu uchun mas`ul shaxslar hisoblanadi. Gapirish ko`nikmasini o`stirish faqatgina bir shaxsga tegishli bo`lmaydi. Shu tufayli ham, ota-onalar va o`qituvchilar nutq qobiliyatlarni rivojlaniruvchi mashqlar, vaziyatlar, suhbatlarni ko`proq amalga oshirishi, o`quvchilar bilan ko`proq muloqotga kirishishi, uni turli muammoli vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini o`stirishi va albatta uning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlanirishga yordam berishlari lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Anuradha, RV, Raman, G, & Hemamalini, HC. 2014. *Methods of Teaching English*. Hyderabad: Neelkamal Publications.
2. Alianello, D. (2004). Early childhood education and its impact on technology. Retrieved on February 13, 2015, from: <http://tiger.towson.edu/~dalian1/research/paper.htm>
3. Broughton, G., Brumfit, C., Flavell, R., Hill, P., & Pincas, A. (1980). *Teaching English as a Foreign Language* (2nd Ed.). New York: Routledge.
4. Brown, H. D. (2001). *Teaching by principles: An Interactive approach to language pedagogy* (2 nd Ed.). New York: Longman.
5. Cabrera, M. P., & Bazo, P. (2002). Teaching the four skills in the EFL primary classroom. *The Internet TESL Journal*, 8 (12), Retrieved on November 10, 2014, from: <http://iteslj.org/Techniques/BazoFourSkills.html>
6. Izomovich, R. Z., & Shavkatovich, S. X. UDC: 82 REDUCTION AS THE WAY OF THE LANGUAGE ECONOMY MANIFESTATION. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 68(15), 41-44.
https://buxdu.uz/media/jurnallar/ilmiy_axborot/ilmiy_axborot_6_son_2020.pdf#page=70.
7. Rasulov, Z. I., & Saidov, K. S. (2022). Linguistic Economy as an Inseparable Law of Language Evolution. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 8–12.
https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14162_1_B0C234AB2BF7FF280FE2B272EAEA790F05DDC162.pdf
8. Yunusova.(2017).PEER EDITING IN MODERN WRITING.
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=29457747>
9. Umidullayevna, Saidova Mukhayyo. "SEMANTIC ANALYSIS OF ENGLISH POETIC TERMS IN LITERARY DICTIONARIES." *RESEARCH AND EDUCATION* 1.1 (2022): 38-46.<https://researchedu.org/index.php/re/article/view/682>
10. Saidova, Мухайё. "Inglizcha poetik terminlarning o'zbek tilida berilishida shakl va mazmun munosabati." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 13.13 (2022).https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6714
11. Saidova, M. U. The problem of studying literary terms on figurative language.https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0,5&cluster=9219256601546054307